

Raximberdiev I.U.

Dotsent, iqtisod fanlari nomzodi

Toshkent davlat transport universiteti

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AVTOMOBILSOZLIK SANOATI
VA BIZNESINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2010-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasida avtomobilsozlik sanoati va biznesini rivojlanish tendensiyalari tahlil qilib o‘tiladi. Shuningdek, avtomobil markalari va sinflari kesimida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar qarab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: avtomobil biznesi, avtomobil sanoati, marka, sinf, model, baho, pozitsiya, diversifikatsiya.

Rakhimberdiev I.U.

Associate professor, candidate of economics.

Tashkent Transport University

**TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF AUTOMOTIVE INDUSTRY
AND BUSINESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Abstract. This article analyzes the trends in the development of the automotive industry and business in Uzbekistan in 2010-2020. In addition, the article considers the relationship of production indicators in the context of brands and classes of cars.

Keywords: automotive business, automotive industry, brand, class, model, price, position, diversification.

Ma’lumki, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash,

ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni ragʻbatlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, isteʼmol tovarlar va butlovchi buyumlar importining oʻrnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va sanoatga soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish belgilandi.

Bu sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlari, toʻqimachilik, metallurgiya va avtotransport vositalari ishlab chiqarish boshqa sohalarga nisbatan salmoqli ulushga ega boʻlgani holda asosiy strategik tarmoqlardan biri sifatida shakllandi. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasi oʻlaroq, ushbu sohalarning ulushi 2010 yilda umumiy sanoat mahsulotlari hajmining 60,5 foizini va 2020 yilga kelib esa 62,9 foizga etganligini eʼtirof qilishimiz mumkin.

Haqiqatan ham, respublikamiz sanoatining rivojlanishida avtomobilsozlik sohasi alohida ustuvor ahamiyatga ega boʻlgan istiqbolli sohalardan biri hisoblanadi. Hususan, avtomobilsozlik biznesi ichki bozorda aholining avtomobillarga boʻlgan talabini qondirish, mamlakatdan valyuta chiqib ketish oqimini kamaytirish hamda eksport orqali davlatga valyuta tushumini oshirish asosida toʻlov balansining ijobiy saldosini taʼminlashda sezilarli ulushga egadir. Shuningdek, sohaning rivoji aholi bandligini taʼminlash, real daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi [2]. Bundan tashqari kapital talab va bilimtalab soha sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol oʻynaydi [3]. Avtomobilsozlik sohasiga muttasil qiziqish hamda uning insoniyat hayot tarziga sezilarli taʼsiri koʻplab tadqiqotlarda oʻz tasdigʻini topgan.


Avtomobilsozlikni shakllantirish va rivojlantirishning qator yoʻnalish va usullari mavjud boʻlib, ulardan jahon amaliyotida keng qoʻllanilib kelinmoqda. Biz bevositda Oʻzbekiston avtomobilsozligi tahliliga oʻtishda oldin avtomobil sanoatini shakllantirishda qoʻllanilayotgan yoʻnalish va usullarga qisqacha taʼrif berib oʻtishni joiz topdik. CKD (completely knocked down), yaʼni toʻliq demontaj

qilingan mashina to'plamini yig'ish usuli, bunda mahsulot qismlar shaklida yetkazib beriladi va manzilda yig'ilishini bildiradi. Ushbu termin avtomobil sanoatidan kelib chiqqan bo'lib, turli komponentlar dunyo bo'ylab yetkazib beriladi va import qilingan davlatda yig'iladi.

CKD usulidan tashqari (semi knocked-down), ya'ni yarim demontaj qilingan mashina to'plamini yig'ish usulidan foydalanilib kelinmoqda.

Ushbu usul uzoq vaqtdan beri dunyoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan MDH mamlakatlarida qo'llaniladi. SKD usulida avtombillar yig'ish zavodiga shartli ravishda g'ildiraksiz, rul va eshiklarsiz yetkazib beriladi.

Bevosita O'zbekistonda avtomobil sanoati rivojining keyingi yillardagi rivojlanish tendensiyalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 2010-2020 yillarda sanoatda avtotransport vositalari, treylerlar va yarim priseplar ishlab chiqarish ulushi 10 – 14 foiz atrofida tebranganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2010-2020 yillarda sanoat ishlab chiqarishida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim priseplar ishlab chiqarish ulushi dinamikasi

Bu davr oralig'ida ishlab chiqarish sanoati nominalda 38119,0 mlrd. so'mdan 367078,9 mlrd.so'mga o'sgan bo'lsa, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim priseplar ishlab chiqarish hajmi 3562,3 mlrd.so'mdan 33718,9 mlrd.so'mga o'sgan bo'lib, ishlab chiqarish sanoatining 2010 yilga nisbatan real o'sish qiymati 2,1 barobarni, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim priseplar ishlab chiqarish 2,6 barobarni tashkil etganligini guvohi bo'lamiz (2-rasm).

Tahlil qilinayotgan davr oralig'ida asosiy e'tiborga molik bo'lgan davr sifatida, 2016 yilda soha ishlab chiqarish hajmida keskin pasayish kuzatilganligi, ya'ni 4,6 foizni tashkil etganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. 2017 yildan


boshlab soha faoliyatida o‘shish kuzatila boshlagan hamda o‘tgan 2020 yilga kelib sohaning sanoatdagi ulushi 11,1 foizni tashkil qilgan.

O‘zbekistonda avtomobil biznesi rivojining tahliliga to‘xtalgan holda, sohada mahsulot ishlab chiqarishning nominal qiymati hamda oldingi yilga nisbatan real o‘shish darajalari ko‘rsatkichlaridan foydalanilganligini qayd qilib o‘tishimiz lozim. Mazkur tahlilni amalga oshirish uchun avtomobilsozlik sanoatini rivojlanish ko‘rsatkichlarini keyingi 4 yildagi tendensiyasiga e‘tibor qaratildi hamda qiyosiy tahlili amalga oshirildi (3-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2010-2020 yillarda sanoat mahsulotlari va avtotransport vositalari ishlab chiqarishning real qiymatdagi o‘shish dinamikasi

Bugungi kunda O‘zbekistonda avtotransport vositalarini ishlab chiqarish sohasi ancha rivojlangan soha bo‘lib hozirda davlatimizda yuk avtomobillari, avtobuslar va engil avtomobillar ishlab chiqilmoqda. So‘nggi 4 yilda bozordagi rivojlanishga e‘tiborimizni qaratgan holda 1 - jadval ma‘lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu davr oralig‘ida engil avtomobil ishlab chiqarish 2020 yilga kelib 2017 yilga nisbatan 99,7% foizga, yuk avtomobillari ishlab chiqarish 10,2% ga oshgan bo‘lsa, bu davr oralig‘ida avtobuslarni ishlab chiqarish esa 39,3% ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm. 2017-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi avtomobil biznesida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari

Demak, amalga oshirgan hisob-kitoblarimiz natijalariga ko'ra, respublikamizda avtomobil bozorida engil avtomobillar ishlab chiqarish salmog'i yuqori ekanligi aniqlandi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan avtotransport vositalarida engil avtomobillar ulushi 2017 yilda 96,7, avtobuslar ulushi 0,7, yuk avtomobillari ulushi 2,6 fozni tashkil qilgan bo'lsa 2020 yilga kelib engil avtomobillar ulushi 98,3, avtobuslar ulushi 0,2, yuk avtomobillari ulushi 1,5 fozni tashkil qildi.

Xulosa qilib aytganda, keyingi davrda avtomobil bozorida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atining kamayish tendensiyasi kuzatilgan va 2020 yilga kelib oldingi yilga nisbatan fizik hajm indeksi 99.8 foizni tashkil qilgan. Bundan tashqari, avtomobillar narxining tabakalashgan shaklda oshirilishi ishlab chiqarishda markalar ulushini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Chunki, bu modellar narxi orasidagi farqni qisqarishi aholi o'rtasida nisbatan yuqori imkoniyatlarga ega bo'lgan avtotransport vositalari, ya'ni Cobalt va Lacetti (Gentra) modellariga talabni oshishiga sabab bo'lmoqda.

REFERENCES:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги

2. Ueno, Hiroya and Muto, Hiromichi, the Automotive Industry of Japan, In Kazuo Sato, (ed), Industry and Business in Japan, M.E. Sharpe, Inc., New York, 1980, pp.139-190.

3. Saberi, Behzad. The role of the automobile industry in the economy of developed countries. International Robotics & Automation Journal. 4. 10.15406/iratj.2018.04.00119.

4. Mutoh, Hiromichi, The Automotive Industry, In Ryutaro Komiyae et al.(eds), Industrial policy of Japan, Academic press Inc., Californiya, 1988, pp 307-331.